

**DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH
ILMIY-ISHLAB CHIQRISH MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PHD.32/2025.27.12.B/QX.01.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

UMURZAKOVA NARGIZA MAKSETBAY QIZI

**QORAQALPOG‘ISTON IQLIM TUPROQ SHAROITIDA SEDANA
(*NIGELLA SATIVA L.*) YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASINI ILMIY
ASOSLASH**

**06.03.03 – Dorivor o‘simliklar introduktsiyasi, yetishtirish texnologiyasi va
agrofarmekologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi

Qoraqalpog‘iston iqlim tuproq sharoitida sedana (*Nigella sativa* L.) yetishtirish agrotekhnologiyasini ilmiy asoslash..... 3

Умурзакова Наргиза Максетбай қызы

Научное обоснование агротехнологии выращивания черного тмина (*Nigella sativa* L.) в климато-почвенных условиях Каракалпакстана 21

Umurzakova Nargiza Maksetbay kizi

Scientific substantiation of agrotechnology for cultivating black cumin (*Nigella sativa* L.) in the soil and climatic conditions of Karakalpakstan..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH
ILMIY-ISHLAB CHIQRISH MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PHD.32/2025.27.12.B/QX.01.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

UMURZAKOVA NARGIZA MAKSETBAY QIZI

**QORAQALPOG‘ISTON IQLIM TUPROQ SHAROITIDA SEDANA
(*NIGELLA SATIVA L.*) YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASINI ILMIY
ASOSLASH**

**06.03.03 – Dorivor o ‘simliklar introduktsiyasi, yetishtirish texnologiyasi va
agrofarmekologiyasi**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Qx1755 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dorivormarkaz.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Jolibekov Berdiyax Baxtiyarovich

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponenlar:

Eshankulov Bobomurod Inayatovich

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

Xomidov Jasurbek Jamoldinovich

biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash IChM huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.32/2025.27.12.V/Qx.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 12-iyun kuni soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111800, Toshkent shahri, Bektemir tumani, Oltintopgan ko‘chasi 15-uy. Tel.: (+99855) 519 21 00; faks: (+99855) 519-21-00; e-mail: shifobaxsh@urmon.uz; Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi Ma‘muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash IChM Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111800, Toshkent shahri, Bektemir tumani, Oltintopgan ko‘chasi 15-uy, Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash IChM Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99855) 519-21-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__» _____kuni tarqatildi.

(2026-yil «__» _____dagi № __ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.E. Izbasarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

N.S. Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

B.Yo. To‘xtayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda soʻnggi yillarda dorivor va efirmoyli oʻsimliklarni madaniylashtirish, ularning biologik faol moddalari asosida tabiiy dori vositalari ishlab chiqarishni kengaytirish, hamda farmatsevtika sanoatida foydalanishga oid tadqiqotlar izchil rivojlanmoqda. Ana shunday oʻsimliklar orasida *Nigella sativa* L. nafaqat oziqaviy va shifobaxsh ahamiyatga, balki yuqori iqtisodiy salohiyatga ham ega dorivor oʻsimlik sifatida dunyo miqyosida alohida oʻrin tutadi. “*Nigella sativa* L. ni asosiy yetishtiruvchi mamlakatlari Hindiston (86%), Eron (4%), Suriya (3%) va Turkiya (2%) boʻlib, umumiy ishlab chiqarish hajmi taxminan 600 ming tonnaga teng”¹. Shuningdek, Misr, Pokiston va Afgʻonistonda ham maʼlum hajmda ekiladi. Bu koʻrsatkichlar *Nigella sativa*ning xalqaro ahamiyatga ega qishloq xoʻjalik va farmatsevtik xomashyo sifatida strategik ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

Jahonda Hindiston, Eron, Turkiya, Suriya, Misr va Pokiston kabi mamlakatlarda *Nigella sativa* L. ning dorivorlik xususiyatlarini, uning urugʻ va yogʻ tarkibidagi biologik faol moddalarni chuqur oʻrganish, ulardan farmatsevtika sanoatida foydalanish, tabiiy dorivor vositalar va biologik faol qoʻshimchalar ishlab chiqish boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmoqda. *N. sativa* urugʻidan olinadigan yogʻ va ekstraktlar tarkibidagi asosiy biologik faol moddalar – timoxinon, nigellon, α -pinen, linol va olein kislotalari, saponinlar, flavonoidlar, taninlar hamda efir moylari organizmdagi yalligʻlanish jarayonlarini kamaytiradi, antibakterial, antioksidant va immun tizimini mustahkamlovchi taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, ushbu oʻsimlikka boʻlgan talab nafaqat xalq tabobatida, balki zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sohasida ham tobora ortib bormoqda.

Respublikamiz sharoitida istiqbolli dorivor, ziravor va efirmoyli oʻsimliklarni koʻpaytirish, ularni yetishtirish agrotexnikasini takomillashtirish, qishloq xoʻjaligi hamda farmatsevtika sohasiga kengroq tatbiq etish boʻyicha soʻnggi yillarda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, *Nigella sativa* L. oʻsimligining Respublika sharoitida oʻsish va rivojlanish biologiyasi, koʻpaytirish imkoniyatlarini oʻrganish, xomashyo (urugʻ va yogʻ) sifatini tahlil qilish, hamda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishga oid ilmiy tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Qoraqalpogʻiston sharoitida ekma sedananing iqlim va tuproq omillariga moslashuvchanligini aniqlash, xomashyo sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yetishtirish usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-sonli “Dorivor oʻsimliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori ushbu yoʻnalishda amaliy tadqiqotlarning dolzarbligini koʻrsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Respublika sharoitida ekma sedananing biologik va agroekologik xususiyatlarini oʻrganish, dorivor xomashyo sifatida sanoat yetishtirish imkoniyatlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PF-139-son “Dorivor

¹ <https://www.cbi.eu/market-information/spices-herbs/cumin/market-potential>

o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘svuvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi PQ-484-son «2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»²gi qarorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlarga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ilmiy-texnika dasturida belgilangan ustivor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Nigella sativa* L. turkumi sistematikasi va uning turlari tarkibi A.I. Poyarkova (1954), A.I. Vvedenskiy (1961), I.T. Sukervanik (1987) A.L. Budansev (1993), K.H. Baser va boshqalar (2000), Z.A. Jamzad va boshqalar (2003, 2005) tomonidan tadqiq etilgan; turning biologik faolligi, dorivor va farmakologik ahamiyati L.V. Svidenko (2008), F.S. Xachirova (2009), M.M. Bernardi va boshqalar (2011), Z.A. Mamedova va hammualliflar (2011), V.V. Tonkovseva va A.M. Yarosh (2012), M.A. Myadeles va boshqalar (2012), I.N. Paliy (2014), N.T. Iyen va I.I. Terninko (2018), S.D. Yusufi va boshqalar (2022), N.I. Kashenko va D.N. Olennikov (2016, 2023) A.K. Murat (2024) tadqiqotlarida keltirilgan; o‘simlikning morfogenetik xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va morfologik belgilarining o‘zgaruvchanligi Z.A. Mammadova (2012), Yu.A. Astashenkov (2014), I.Ye. Anishenko va O.Yu. Jigunov (2016), A.Yu. Astashenkov va V.A. Cheremushkina (2016), A.Yu. Astashenkov va hammualliflar (2017, 2018), Ye.I. Demyanova (2019) tomonidan aniqlangan; mikroklonal ko‘paytirish va biotexnologik tadqiqotlar V.L. Nalobova va V.V. Akimenko (2005), I.V. Mitrofanova va boshqalar (2006, 2009) ishlarida keltirilgan; yangi navlar yaratish va seleksiya ishlari V.D. Rabotyagov va hammualliflar (2009), A.Ye. Paliy va hammualliflar (2016), A.G. Devyatov (2019), Ye.Yu. Babayeva (2023) tomonidan olib borilgan; introduksiyasi va yetishtirish agrotexnikasi T.I. Oryol (2015), Z.A. Guseynova va M.K. Kuramagomedov (2017), P.S. Yegorova (2019) tadqiqotlarida o‘rganilgan.

O‘zbekiston olimlari tomonidan *Nigella sativa* L. urug‘larining biokimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari va agroekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. J. Farmonov (2021) urug‘larni termik ishlov berish orqali moy chiqishini 75,2% gacha oshirishga erishgan.

M.U.Tojiboyev (2023) urug‘ tarkibida 32–40% moy, 15–20% oqsil va

² <https://lex.uz/ru/docs/-4372839>

timoxinon moddasining yuqori faolligini aniqlagan. D.R.Tojiboyev (2024) mahalliy moy tarkibini boshqa hududlar namunasi bilan taqqoslab, asosiy yog‘ kislotalarining barqarorligini ko‘rsatgan. A.V.Maxmudov va boshqalar (2022) turli ekotizimlarda uning fenologiyasi va hosildorligini tahlil qilib, eng yuqori hosil 2,34 t/ga ni tashkil etganini qayd etgan.

O‘zbekiston florasida tarqalgan *Nigella sativa* L. ning bioekologoyasi va introduksiyasi adabiyotlarda yetarlicha tadqiq etilmagan. Qoraqalpog‘iston sharoitida ushbu turning biologik va agroekologik xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish, introduksiya va agropantatsiyalarini tashkil etishning ilmiy asoslangan texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb va muhim vazifalardan biridir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazida olib borilayotgan Al-9124093824-R5 “Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi qoshida tashkil etilgan O‘simliklar urug‘lari genbanki bilan ta’minlangan biznes-akselerator o‘quv markazi va texnoparkda istiqbolli cho‘l hamda dorivor o‘simliklarni “*in-vitro*” sharoitida ko‘paytirish hamda ularning genbankini yaratish” bo‘yicha olib borilayotgan loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpog‘iston tuproq iqlim sharoitida sedana (*Nigella sativa* L.)ni bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida yetishtirishning (ekish me‘yori, muddatlari, sxemasi, sug‘orish me‘yori) ilmiy asoslangan uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Mavzu maqsadidan kelib chiqib, ilmiy ish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

Nigella sativa L. urug‘ining unuvchanligi aniqlash;

ontogenez bosqichlarini tadqiq qilish;

mavsumiy rivojlanish maromini kuzatish;

Qoraqalpog‘iston sharoitida yetishtirilgan *Nigella sativa* L. urug‘ini fitokimyoviy tahlil qilish;

Nigella sativa L. ni o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish muddatlari, sxemasi va me‘yorining ta’sirini aniqlash;

sug‘orish o‘simlik me‘yorining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri aniqlash;

yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae*) oilasiga mansub, bir yillik, dorivor, ziravor va efir moyli o‘simlik - *Nigella sativa* L. turi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bioekologiya, ontogenez, fitokimy, ko‘paytirish va yetishtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada dala tajribalari, fenologik, morfometrik, fitokimyoviy va statistik usullardan foydalanildi, o‘simlikning morfologik belgilarini aniqlash Z.T. Artyushenko (1986) metodikasi asosida, fenologik kuzatuvlar I.N. Beydeman (1974) va G.N. Zaysev (1973) tavsiyalariga muvofiq olib borildi, dala tajribalari va statistik tahlil B.A. Dospexov (1985) uslubi asosida bajarildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Nigella sativa ning urug' unuvchanligi uchun eng maqbul harorat +15°C ekanligi kuzatilib, unuvchanlik ko'rsatkichi 97.8% ni tashkil etishi aniqlangan;

Nigella sativa ning ontogenez bosqichlari – latent, maysa, yuvenil, immatur, generativ davrdan iborat bo'lib, umumiy vegetatsiya davri davomiyligi 115-124 kunni tashkil etishi aniqlangan. Eng qisqa vegetatsiya davrining davomiyligi 2023 yilda, eng uzoq vegetatsiya davrining davomiyligi esa 2024 yilda qayd etilgan.

Nigella sativa ni maqbul ekish muddati Nukus tumani sharoitida aprel oyining oxirgi dekadasi ekanligi tajribalar asosida ilmiy asoslangan. Qator oralig'i *N. sativa* ning o'sishi, shoxlanishi va urug' hosildorligiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Qator oralig'i 45 sm bo'lgan variantda eng yuqori hosildorlikka (1,2 t/ga) erishilgan. 30 sm oraliqda o'sish va hosildorlik pasaygan (0,95 t/ga). 60 sm oraliqda individual o'sish yaxshi bo'lsa-da, umumiy hosildorlik 1,05 t/ga ni tashkil etgan;

N. sativani tuplar orasi 15 sm oraliqda ekilganda o'simliklar yaxshi rivojlanib, eng yuqori urug' hosildorlikka (1,18 t/ga) erishilgan. Tuplar orasi 10 sm masofada o'sish va hosildorlik pasaygan (0,90 t/ga). Tuplar orasi 20 sm masofada individual o'sish yuqori bo'lsa-da, maydondagi umumiy tup soni kamaygani sababli hosildorlik 1,00 t/ga ni tashkil etgan. Nukus tumani sharoitida *N. sativa* ekin turi uchun eng samarali ekish me'yori 10 kg/ga deb aniqlangan va eng yuqori urug' hosildorligiga (828 kg/ga) erishilgan;

N. sativa ni sug'orish rejimida tuproq namligi CHDNSga nisbatan 60–70% darajada saqlangan shartlarda eng yuqori biometrik ko'rsatkichlar va hosildorlikka erishishi imkoniyati mavjudligi aniqlangan. Bu me'yorda o'simliklar nafaqat to'liq fiziologik rivojlanish bosqichlaridan o'tishi, balki yetarli biomassa to'plab, maksimal hosil shakllantirishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Nigella sativa urug'idan olingan yog' tarkibining tahlili Nukus tumani hududida to'yinmagan yog' kislotalarining yuqori ulushga ega ekanligini ko'rsatdi (84,71%), bu uning biologik qiymati yuqori ekanligini bildiradi. Liniol kislotasi asosiy qismni (56,36%) tashkil etganligi aniqlandi. Shuningdek, olein kislotasi ham yuqori foizda aniqlangan (24,48%). To'yingan yog' kislotalari tarkibi 15,29% bo'lib, palmitin kislotasi asosiy o'rinni egallagan (11,91%). Ushbu natijalar hududiy sharoitlar, jumladan, iqlim va tuproqning yog' tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi va Farg'onaga tumanida yetishtirilgan ekma sedanadan Nukus tumani hududida yetishtirilgan ekma sedanadan olingan yog'ning yuqori sifatga ega ekanligi isbotlangan.

N. sativa ni Qoraqalpog'iston iqlim tuproq sharoitida bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida ko'paytirish va yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya doirasidagi ilmiy ish natijalari Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilganligi va ma'qullanganligi, dala tajribalari holati va birlamchi ma'lumotlarni mavjudligi, dissertatsiya doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari asosida 2 ta respublika va 3 xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy

ahamiyati shundaki, ilk bor *Nigella sativa* ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida bioekologik xususiyatlari tadqiq etilganligi, o‘simlik urug‘ xomashyosining fitokimyoviy tarkibi aniqlanganligi, ko‘paytirish va yetishtirish usullarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni Respublikamiz turli tuproq va iqlim sharoitida dorivor o‘simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy hududlarda va qishloq xo‘jaligi tizimida keng masshtabli plantatsiyalarini tashkil etish, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoati uchun zarur xom-ashyo bilan ta‘minlanishiga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Qoraqalpog‘iston tuproq iqlim sharoitida sedana (*Nigella sativa* L.) yetishtirish agrotexnologiyasini ilmiy asoslash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qoraqalpog‘iston tuproq iqlim sharoitida sedana (*Nigella sativa* L.) yetishtirish agrotexnologiyasi ishlanmasini O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi davlat unitar muassasasining Samanbay tajriba maydonida hududining 0,1 gektar maydonida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025 yil 23 oktyabrdagi № 02-01/18-2-3702-son ma‘lumotnomasi). Natijada *Nigella sativa* turi yangi sharoitga moslashuvchanligini namoyon qilib, introduksiya sharoitida yuqori sifatli urug‘lar yetishtirish imkonini bergan. Olingan urug‘lar Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazida tashkil qilingan “O‘simliklar genbanki”ga topshirildi. Ushbu urug‘lar yordamida katta plantatsiyalarda yetishtirish va resurslar bazasini yaratish imkoniyati yaratilgan. Olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan “Qora sedana (*Nigella sativa* L.) dorivor o‘simligini ko‘paytirish va yetishtirish agrotexnologiyasi” nomli tavsiyanoma Respublikamizning dorivor o‘simliklarni o‘stirish, ko‘paytirish va ularni tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi o‘rmonchilik, fermer xo‘jaliklari yerlarida *N. sativa* ning plantatsiyalarini yaratish va sifatli urug‘ xomashyosini olish imkonini bergan.

Qoraqalpog‘iston tuproq iqlim sharoitida sedana (*Nigella sativa* L.) yetishtirish agrotexnologiyasi ishlanmasini O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Orol bo‘yi xalqaro innovatsiya markazi davlat unitar muassasasining Samanbay tajriba maydonida hududining 0,1 gektar va “AGRO INPEX KEGEYLI” fermer xo‘jaligida 1.90 gektar maydonida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025 yil 7 oktyabrdagi № 03-06/03-06-3839-son ma‘lumotnomasi). Natijada *Nigella sativa* turi yangi sharoitga moslashuvchanligini namoyon qilib, introduksiya sharoitida yuqori sifatli urug‘lar yetishtirish imkonini bergan. Olingan urug‘lar asosida tur uchun maxsus urug‘ banki tashkil etilgan. Ushbu urug‘lar yordamida katta plantatsiyalarda yetishtirish va resurslar bazasini yaratish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 1 tasi

xorijiy jurnallarda chop etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot uslublari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sedana (*Nigella sativa* L.) ning o'rganilish tarixi, botanik tavsifi va ahamiyati (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobi ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahliliga bag'ishlangan.

Ilmiy manbalarda *Nigella sativa* L. bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan uning fitokimyoviy tarkibi, fiziologiyasi, o'sish sharoitlariga moslashuvi, agrotexnikasi va dorivor xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba olib borilgan hududning iqlim va tuproq sharoitlari, tadqiqot obyekti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba olib borilgan hududning iqlim va tuproq sharoitlari, tadqiqot obyekti va uslublari bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Tajriba maydoni Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, hudud keskin kontinental iqlim sharoiti bilan ajralib turadi. Yozda havo juda issiq va quruq, qishda esa sovuq va kam yog'inli bo'ladi. “Nukus” meteostansiyasi ma'lumotlariga ko'ra, qish oylarida o'rtacha harorat $-6,5^{\circ}\text{C}$ dan $4,6^{\circ}\text{C}$ gacha, yozda esa $29-31^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Maksimal harorat 2024-yilda 43°C dan oshgan, minimal harorat esa $-22,5^{\circ}\text{C}$ gacha pasaygan. O'rtacha yillik yog'in miqdori 80–120 mm ni tashkil etib, asosan bahor va kuz oylariga to'g'ri keladi. Tuproq yuzasining yozdagi harorati $60-67^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi, bu esa hududda o'simliklarning issiqlikka chidamliligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Tajriba maydoni sug'oriladigan o'tloq-allyuvial tuproqlar bilan tavsiflanadi. Tuproqlar morfogenetik jihatdan yumshoq sho'rlangan, gidroksid reaksiyasi zaif ishqoriy, gumus miqdori yuqori qatlamda 1,2%, pastki qatlamlarda 0,3% gacha kamayadi. Azot 0,06–0,019%, fosfor 0,25–0,10%, kaliy 1,36–0,59% miqdorda aniqlangan. Harakatchan fosfor bilan ta'minlanganlik o'rtacha (34 mg/kg), kaliy esa nisbatan past (210 mg/kg) darajada. Sho'rlanish tipi xlorid-sulfatli bo'lib, sho'rlanish darajasi kuchsizdan o'rtachagacha baholangan.

Tadqiqot obyekti sifatida *Nigella sativa* L. (qora sedana) tanlanib, o'simlikning ontogenez bosqichlari, morfologik belgilarining o'zgarishi, urug'larning unuvchanligi va kimyoviy tarkibi o'rganildi.

O'simlikning ontogenez davrlari bo'yicha morfologik belgilarini o'rganishda, ajratishda va aniqlashda “Атлас по описательной морфологии высших растений” (3.Т Артюшенко,1990) tavsiya etgan usullardan foydalanildi.

O‘simlikning ontogenez davrlari И.Г.Серебряков ning «Морфология вегетативных органов высших растений» asaridan va «Рекомендации по изучению онтогенеза в ботанических садах СССР» (1990) asarlaridan foydalangan holda tavsiflandi. Ekma sedaning mavsumiy rivojlanish maromini o‘rganishda И.Н.Бейдеман usullaridan foydalanildi (1974). Ma’lumotlarning statistik tahlili umum qabul qilingan usullar yordamida, ya’ni В.А. Dospexovning “Dala tajribasi uslublari” qo‘llanmasi asosida ko‘p omilli dispersion tahlil uslubi asosida amalga oshirildi hamda personal kompyuter yordamida MS Excel t-test (Student t-kriteriyasi) uslubida hisoblandi. Ekma sedana urug‘ining kimyoviy tarkibi O‘zR FA O‘simlik moddalar kimyosi instituti “Yuqori molekulyar o‘simlik moddalari kimyosi” laboratoriyasida aniqlandi. O‘simlikni yetishtirish bo‘yicha dastlabki agrotexnik usullar kichik o‘lchamdagi maydonda tajribalar qo‘yish yo‘li bilan aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida sedana (*Nigella sativa* L.) ning bioekologik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobi o‘simlikning laboratoriya va dala sharoitidagi urug‘ unuvchanligi, introduksiya sharoitida ontogenez davr va bosqichlari, mavsumiy rivojlanish maromi, fitokimyoviy tahlili va introduksion baholashga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limida *Nigella Sativa* L. urug‘larining unuvchanligiga saqlash muddatlarining ta’siri laboratoriya va dala sharoitida o‘rganilgan. *Nigella sativa* L. urug‘larining unuvchanligi saqlanish muddati ortib borgan sari pasayib borishi aniqlandi. Laboratoriya va dala sharoitida eng yaxshi ko‘rsatkich 9 oy saqlangan urug‘larda kuzatilib, mos ravishda 15⁰C haroratda eng yuqori unuvchanlik (97,8%) qayd etilgan va 92,4% ni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich 33 oy saqlangan urug‘larda aniqlanib, mos ravishda unuvchanlik 28,7%, yashovchanlik 55,2% ni tashkil etganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Ekma sedana urug‘larining unuvchanligiga saqlash muddati va haroratning ta’siri

№	Tajriba variantlari	Harorat, °C	Unishning boshlanish vaqti	22-kundagi unuvchanlik ko‘rsatkichi, %
1	9 oy saqlangan urug‘lar	10	8- kun	15.6±1.3
		15	4- kun	97.8±3.9
		20	7- kun	84.3±3.7
		25	12- kun	65.8±2.5
2	21 oy saqlangan urug‘lar	10	12- kun	-
		15	7- kun	65.7±2.4
		20	11- kun	45.4±2.5
		25	15- kun	33.8±3.1
3	33 oy saqlangan urug‘lar	10	14- kun	-
		15	9- kun	36.7±1.9
		20	14- kun	28.5±1.5
		25	22- kun	19.8±1.6

Ikkinchi bo‘limida Sedana (*Nigella sativa* L.) o‘simligining Qoraqalpog‘iston sharoitida ontogenez bosqichlari, ya‘ni urug‘ning unib chiqishidan boshlab to to‘liq qurishigacha bo‘lgan jarayon erta bahordan yoz oxirigacha bo‘lgan davr mobaynida sodir bo‘lishi aniqlangan. Tajriba sharoitida o‘simlik ontogenezning quyidagi bosqichlarini qamrab oldi.

Latent davri (se). Latent davr – o‘simlik urug‘i pishib yetilgan paytdan unib chiqishigacha bo‘lgan oraliq davrdir. *N. sativa* urug‘lari qora rangda, Urug‘ining shakli uch burchaksimon, yuzasi notekis va tuksiz yalang‘och, uzunligi taxminan 2.5-3.0 mm, eni 1.3-2.0 mm, asosi tomon toraygan. 1000 dona urug‘ining og‘irligi 2.1 gr ni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. *Nigella sativa* L. urug‘lari tashqi ko‘rinishi va 1000 dona urug‘ining og‘irligi.

Maysa bosqichi (p). Ekma sedananing urug‘lari oldindan tayyorlab qo‘yilgan tajriba maydoniga 12-aprel kuni ekildi. Dastlabki unib chiqish 14 kunda namoyon bo‘ldi. O‘simlikning maysa davri o‘rtacha 12 kun davom etishi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. *Nigella sativa* L. urug‘larini unib chiqishi.

Yuvenil bosqich (j). Bu bosqich o‘simliklarning birinchi chinbarglari chiqqandan boshlab birinchi tartib shoxlari shakllanguncha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Dastlabki chinbarglar urug‘pallabarglar chiqqanidan o‘rtacha 12 kun o‘tib, ya‘ni urug‘lar yerga sepilgan kundan 26 kun o‘tib namoyon bo‘ldi. Dastlabki chinbarg uch bo‘lakli bo‘lib, 2/3 qismigacha bo‘lingan, barg plastinkasining uchki qismi to‘mtiqroq, bandsiz, poyaga o‘tirgan holatda yoki yo‘g‘on, kalta bandli, eni va bo‘yi 1-1.5 mm dan, yarim quvursimon shaklda. Ikkinchi va uchinchi chinbarglarini 4-5 kun oralig‘ida, keyingilarini 3-4 kun oralig‘ida hosil qila boshladi (3-rasm).



3-rasm. *Nigella sativa* L. ning yuvenil davridagi tupining ko‘rinishi.

Immatur bosqichi (im). Mazkur bosqich o‘simlikda birinchi tartib shoxlar paydo bo‘lgandan to g‘unchalaguncha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda maysa va yuvenil holatdagi barglarning qurishi, yon novdalarning hosil bo‘lishi, yer ustki biomassasi (vegetativ massa) ning ortishi, ildiz tizimining o‘shishi, asosiy ildizda 3–4 ta yon ildizlar hosil bo‘lishi va asosiy ildizda kambiy to‘qimalarining paydo bo‘lishi sodir bo‘ladi. Bu paytda o‘simlikning bo‘yi 20–25 sm gacha yetadi. Vegetativ yetuklik holatida bo‘lish davri kuchli sho‘rlangan tuproq sharoitida uzunroq davom etib, o‘rtacha 25-30 kunni tashkil etadi.

Generativ davr – Ushbu davr asosiy poyaning uchki qismida g‘unchaning paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. O‘simlik tuplari g‘unchalash fazasiga may oyining oxirgi o‘n kunligida kirdi. G‘unchalash davri boshida o‘simliklarning bo‘yi 22-27 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, oxiriga borib 35-40 sm ni tashkil etdi. Asosiy poyada 15-18 ta barglar mavjud edi. Har bir g‘unchaning to‘liq shakllanish davri 12-14 kunni tashkil etdi. Ekma sedananing gullash davri iyun oyining ikkinchi dekadasida (11-12 iyun) boshlandi. Yalpi gullash iyul oyining birinchi dekadasiga to‘g‘ri keldi. Ushbu vaqtda o‘simlikning bo‘yi 42-46 sm ni tashkil etdi. Bitta tupdagi gullar soni 16-31 tani tashkil etdi. Bitta gul o‘rtacha 4-6 kun gullagan bo‘lsa, bir tup o‘simlik 12-18 kun gulladi. Gullashning yakunlanishi iyul oxiri va avgustning boshlanishiga to‘g‘ri keldi. Gullash davrining umumiy davomiyligi 50-55 kunni tashkil etdi (4-rasm).



4-rasm. *Nigella sativa* L. ning generativ davridagi tupining ko‘rinishi.

Iyun oyining ikkinchi o‘n kunligidan boshlab mevalash bosqichi boshlanadi. O‘simlik urug‘langandan so‘ng rangli kosachabarglari to‘kila boshlaydi va mevbarglar hamda ularning ichidagi 9-10 tadan iborat urug‘murtaklar rivojlana boshlaydi.

Ekma sedananing potensial urug' mahsuldorligi bir tupdagi gullar soniga bog'liq. Ekma sedana o'simligida bir tupdagi gullar soni 16-31 tani tashkil etib, kuzatish yillarida o'rtacha 21,77 dan 25,17 ko'rsatkichni namoyon etgan. (2-jadval).

2-jadval

**Ekma sedananing potensial va real urug' mahsuldorligi
(2022-2024 yillar)**

Biometrik ko'rsatkichlar	Yillar		
	2022	2023	2024
Bir tupdagi potensial gullar soni, dona	16,11±0,99	23,17±1,48	26,04±2,62
Bir tupdagi real gullar soni, dona	15,75±0,84	22,87±0,95	25,84±1,16
Bitta guldagi potensial meva barglar soni, dona	5±0,02	5±0,02	5±0,02
Bitta guldagi real meva barglar soni, dona	4,98±0,02	4,98±0,02	4,98±0,02
Bitta meva bargdagi potensial urug' murtaklar soni, dona	9,4±0,4	9,6±0,5	9,7±0,3
Bitta meva bargdagi real urug' murtaklar soni, dona	9,4±0,4	9,6±0,5	9,7±0,3
Bitta tupdagi potensial urug' murtaklar soni, dona	757,17	1112,16	1262,94
Bitta tupdagi real urug' murtaklar soni, dona	737,3	1093,37	1248,23

Nukus sharoitida real urug' mahsuldorligi ko'rsatkichi 97,6 % ni tashkil qildi. Urug'chi tugunchasi, ya'ni ginetsey 5 ta meva barglardan tashkil topgan. Ekma sedananing har bir meva bargida 9,4-9,7 tadan urug' murtak mavjud. Bitta o'simlikdagi umumiy urug' boshloqlar soni yillar bo'yicha 737,3 dan 1248,23 gacha bo'lgan, natijada bitta o'simlikning potensial urug' dorlik hosili 2,95 – 3,07 g ni tashkil etdi

1000 dona urug' og'irligi va ekish sxemasi asosida ekma sedananing hosildorligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval


Ekma sedananing urug' hosildorligi (2022-2024 yillar)

Biometrik ko'rsatkichlar	Yillar		
	2022	2023	2024
1 ta qatordagi tuplar soni	666,67	666,67	666,67
1 ga dagi qatorlar soni	166,67	166,67	166,67
Bitta tupdagi real urug' murtaklar soni, dona	737,3	1093,37	1248,23
Urug' mahsuldorligi, gramm	1,55	2,30	2,62
Urug' hosildorligi, kg/ga	172,23	255,56	291,11

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ekish sxemasi 45x15 va 1000 dona urug' vazni 2,1 gramm bo'lganda 1 ga maydonda urug' hosildorligi 2022 yili 172,23 kg/ga, 2023 yili 255,56 kg/ga, 2024 yili 291,11 kg/ga ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2022-2024-yillarda **Nukus tumanida sho'rlangan sharoitida N. sativa ning ontogenezi** to'liq bosqichlardan o'tdi, o'ziga xos morfologik va fiziologik belgilar bilan tavsiflandi.

Mazkur bobning uchinchi bo‘limida Sedana (*Nigella sativa* L.) ning Qoraqalpog‘iston respublikasi sharoitida turning mavsumiy rivojlanish maromi tadqiq etilgan. Nukus tumani sharoitida 2022–2024-yillar davomida kuzatilgan vegetatsiya jarayonlari, uning mavsumiy o‘shish va rivojlanish maromlari har tomonlama tahlil qilinadi (5-rasm).



5-rasm. *Nigella sativa* L. ning fenospektri (2022–2024-yillar)

2022 yilda ekma sedananing vegetatsiya davomiyligi 122 kunni tashkil etdi. 2023 yilda ekma sedananing vegetatsiya davomiyligi 115 kunni tashkil etdi. 2024 yilda ekma sedananing vegetatsiya davomiyligi 124 kunni tashkil etdi.

To‘rtinchi bo‘limda Qoraqalpog‘iston respublikasi sharoitida yetishtirilgan *Nigella sativa* L. urug‘larining fitokimyoviy tahlili keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

***Nigella sativa* urug‘i yog‘ining fiziko-kimyoviy ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkichlar	Nukus (Umurzakova, 2023)	Farg‘ona (Tojiboyev, 2024)
1	Namlilik va uchuvchan moddalar, %	8,11	7,52
2	Yog‘ (neytral lipidlar), %	33,28	36,75
3	Absolyut quruq modda bo‘yicha yog‘, %	36,45	39,73
4	Yog‘ning refraksiya ko‘rsatkichi, $[\alpha]_{D20}$	1,4689	1,4682
5	Zichlik, gr/sm ³	0,9182	—
6	Yog‘ning kislotalik indeksi	4,56	1,12
7	Yod indeksi, % J ₂	124,32	112
8	Polyar lipidlar, %	1,54	1,01

4-jadvalda keltirilgan natijalar tahliliga ko‘ra Farg‘ona va Nukus hududlarida *Nigella sativa* urug‘i va yog‘ining kimyoviy tarkibi farqlanadi.

Yog‘ kislotalarining tarkibi va miqdori 5-jadvalda keltirilgan.

Nigella sativa L. lipidlarida yog' kislotalarining tarkibi, GX, %

№p/p	Yog' kislotalari	Tarkibi			
		Nukus (Umurzakova,2023)		Farg'ona (Tojiboyev,2024)	
		NL	PL	NL	PL
1	Laurin kislotalari, 12:0	0,23	—	0,29	-
2	Miristin kislotalari, 14:0	0,16	0,24	0,17	0,29
3	Pentadekan kislotalari, 15:0	0,07	0,03	-	-
4	Palmitin kislotalari, 16:0	11,91	16,55	11,88	14,21
5	Palmitolein kislotalari, 16:1	0,23	0,21	0,22	0,27
6	Margarin kislotalari, 17:0	0,08	0,09	0,06	0,09
7	Stearin kislotalari, 18:0	2,61	2,66	2,73	3,41
8	Olein kislotalari, 18:1ω9	24,48	22,74	23,89	25,71
9	Linol kislotalari, 18:2ω6	56,36	53,65	0,70	SL
10	Araxin kislotalari, 20:0	0,19	0,17	56,27	52,03
11	Eykozen kislotalari, 20:1ω11	0,39	0,37	0,19	0,20
12	Eykozadiyen kislotalari, 20:2ω6	3,25	3,22	0,44	0,80
13	Begen kislotalari, 22:0	0,04	0,07	3,16	2,78
14	Eruk kislotalari, 22:1	—	—	SL.	0,21
	∑ to'yingan yog' kislotalari	15,29	19,81	15,32	18,41
	∑ to'yinmagan yog' kislotalari	84,71	80,19	84,68	81,59

5-jadvaldan ko'rinib turganidek *Nigella sativa* urug'idan olingan yog' tarkibining tahlili har ikki hududda to'yinmagan yog' kislotalarining yuqori ulushga ega ekanligini ko'rsatdi (Nukusda 84,71%, Farg'onada 84,68%), bu ularning biologik qiymati yuqori ekanligini bildiradi. Liniol kislotalari asosiy qismni tashkil etib, Nukusda 56,36%, Farg'onada esa 56,27% ni tashkil etdi. Shuningdek, olein kislotalari ham yuqori foizda aniqlangan (Nukusda 24,48%, Farg'onada 23,89%).

